ZAHIRIDDIN
MUHAMMAD BOBUR
NOMIDAGI ANDIJON
DAVLAT UNIVERSITETI

ANDIJAN STATE
UNIVERSITY NAMED
AFTER ZAKHIRIDDIN
MUKHAMMAD BABUR

ILMIY XABARNOMA

Seriya: Pedagogik tadqiqotlar

SCIENTIFIC BULLETIN

Series: Pedagogical Research

2023 / 2 (70)

Andijon
2023-yil

ILMIY XABARNOMA
Seriya: Pedagogik tadqiqotlar

SCIENTIFIC BULLETIN
Series: Pedagogical Research

Muassis:
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti

Jurnal bir yilda 8 marta (seriya 2 marta) chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 17-avgustda 1097 raqami bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi: 344

Nashr uchun mas’ul:
D.Ne’matova

Jurnal falsafa, tarix, filologiya, pedagogika va biologiya fanlari bo‘yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar e’lon qilinishi lozim bo‘lgan nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Bosishga ruxsat etildi: 26.08.2023
Qog‘oz bichimi: 70x100
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 9,8
Nashr bosma tabog‘i 6,2
Adadi: 200 dona.
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma №:190

“KANS OFFICE” MCHJ matbaa bo‘limida chop etildi.
Andijon shahri, Xarabek ko‘chasi, 104

Tahrir hay’ati raisi:

Azimova Ziyoda Ergashevna – pedagogika fanlari doktori (Andijon, O‘zbekiston)

Tahrir hay’ati

Quronov Muhammadjon – pedagogika fanlari doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich – pedagogika fanlari doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

Yusupova Shoxida Jaloliddinovna – pedagogika fanlari doktori, professor (Andijon, O‘zbekiston)

Xaydarov Mamatjon Eshqulovich – pedagogika fanlari doktori, professor (Toshkent,O‘zbekiston)

Jumayev Mamanazar Irgashevich – pedagogika fanlari doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

Isayev Ilya Fyodorovich – pedagogika fanlari doktori, professor (Belgorod, Rossiya)

Gülgün Bangir Alpan – pedagogika fanlari doktori, professor (Anqara, Turkiya)

Asuka Kavano – pedagogika fanlari doktori (PhD) (Nagoya, Yaponiya)

Aliyeva Shahlo – pedagogika fanlari doktori (Boku, Ozarbayjon)

Jumabayeva Aziya Eleupanovna – pedagogika fanlari doktori, professor (Ostana, Qozog‘iston)

Artikova Muhayyo Botiraliyevna – pedagogika fanlari doktori (Andijon, O‘zbekiston)

Bichurina Seimbika Usmonovna – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (Kazan, Rossiya)

Muharrir:

D.H. Quronov, filologiya fanlari doktori, professor

Tahririyat manzili:
170100, Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129, Telefon: +998911602043. Faks: (374) 223-88-30
E-mail: adu_xabarnoma@mail.ru Rasmiy sayt: www.xabarnoma.adu.uz

MUNDARIJA

Pedagogika nazariyasi

U.J. HASANOV
Talabalarda axborot-texnologik kompetensiyani rivojlantirish muammosi.....5

M.A. SOBIROVA
O‘zbek xalqi etnomadaniyati va islom dini manbalarida tarbiya mavzusining yoritilishi...16

Sh.Sh. XUDAYBERGANOV
Global ta’lim va uning akademik erkinlik bilan bog‘liq jihatlari.....25

M.Sh. RAHMONOV
Mustaqil ta’lim olishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning didaktik asoslari (CourseLab dasturi misolida).....33

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

Ф.Ш.АЛИМОВ, Р.А.ФАХРУТДИНОВА
Компетентностный подход в преподавании английского языка как концептуальная основа новой парадигмы образования.....41

P.M. JALOLOVA
Atom fizikasini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodikasi.....51

A.A. XUDAYBERDIYEV
Jadid matbuoti va darsliklarida *vatan* mavzusining yoritilishi.....59

KICHIK XABARLAR

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

A. HAKIMOV
Biofizika fanini o‘qitish metodikasini kreativ yondashuv asosida takomillashtirish.....71

Pedagogika nazariyasi

A.V. UMAROV
Bo‘lajak muhandis-pedagoglarda mediamadaniyatni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari.....77

CONTENTS

Theory of pedagogy

U.J. KHASANOV
The problem of developing students' information technological competence.....5

M.A. SABIROVA
Coverage of the topic of education in the ethnic culture of the Uzbek people and the sources of the islamic religion.....16

Sh.Sh. XUDAYBERGANOV
Global education and its aspects related to academic freedom.....25

M.Sh. RAHMONOV
Didactic principles of use of innovative technologies in independent education (Courselab example).....33

Theory and methods of education and upbringing

F.Sh. ALIMOV, R.A. FAKHRUTDINOVA
Component approach in teaching foreign languages as a conceptual basis of a new paradigm of education.....41

P.M. JALOLOVA
Methodology of application of digital technologies in teaching exact sciences.....51

A.A. KHUDAYBERDIYEV
The coverage of homeland topic in Uzbek jadids press and textbooks.....59

SHORT SUBMISSIONS

Theory and methods of education and upbringing

A. HAKIMOV
Improving the methodology of teaching biophysics on the basis of a creative approach...71

Theory of pedagogy

A.V. UMAROV
Theoretical and pedagogical foundations for the development of media culture in future engineering pedagogists.....77

UO‘K 378.091.3:004:62

BO‘LAJAK MUHANDIS-PEDAGOGLARDA MEDIAMADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

A.V. Umarov

Mediamadaniyat bo‘lajak muhandis-pedagoglar uchun katta ahamiyatga ega. Oliy ta’limni yakunlagach, ta’lim oluvchilarning media kompetentligini rivojlantirish ularning bevosita vazifasi hisoblanadi. Maqolada ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lg‘usi muhandis pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirib borish masalasi hamda zamonaviy media atrofdagi dunyoni o‘zlashtirishning murakkab vositasi ekanligi to‘g‘risida gap boradi.

Kalit so‘zlar: *media, mediamadaniyat, mediasavodxonlik, mediakompetentlik, mediata’lim.*

Медиакультура имеет большое значение для будущих инженеров-педагогов. После получения высшего образования их прямой задачей является развитие медиакомпетентности у обучающихся. В статье рассматривается вопрос развития медиакультуры будущих инженеров-педагогов в условиях информатизации образования и современных медиа как комплексного средства освоения окружающего мира.

Ключовые слова: *медиа, медиакультура, медиаграмотность, медиакомпетентность, медиаобразование.*

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 19-moddasida har bir insonning axborotdan foydalanish erkinligi himoyalangani quyidagicha qayd etilgan: “Har bir inson e’tiqod erkinligi va uni erkin ifoda etish huquqiga ega; ushbu huquq o‘z e’tiqodiga to‘siqsiz tarzda sodiq bo‘lish hamda axborot va g‘oyalarni har qanday vositalar bilan har qanday davlat chegaralaridan qat’i nazar izlash, olish va tarqatish erkinligini o‘zida mujassam etadi” [1].

Mediamadaniyat bo‘lajak muhandis-pedagoglar uchun katta ahamiyatga ega. Oliy ta’limni yakunlagach, ta’lim oluvchilarning media kompetentligini rivojlantirish ularning bevosita vazifasi hisoblanadi. Hozirgi mutaxassislarga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarning ichida mediamadaniyat va mediakompetentlik muhim o‘rin tutadi. Bu borada nafaqat nazariy, balki amaliy ko‘nikmalarni egallash – zamonaviy mehnat bozorining asosiy talablaridan biriga aylandi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez taraqqiy etishi natijasida “media” atamasi paydo bo‘ldi. “Media” (lot. media – vositalar) – ommaviy kommunikatsiya vositalari – ma’lumotni yaratish, yozib olish, nusxalash, ko‘paytirish, saqlash, tarqatish, idrok etish hamda subyekt (mediamatn muallifi) va obyekt (ommaviy tinglovchilar) o‘rtasida almashishning texnik vositalari sifatida ta’riflangan [3. B. 24].

“Media” atamasi XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo’llangan [4. B. 156].

“Mediamadaniyat” tushunchasi “media” va “madaniyat” tushunchalarining birgalikda qo‘llanilishi asosida shakllantirilgan. “Media” “medium” so‘zining ko‘plikdagi shakli hisoblanadi. “Medium” so‘zi lotin tilidagi “medius” so‘zidan olingan bo‘lib, “vosita” ma’nosini anglatadi [5]. Duden xalqaro atamalar lug‘atida “media” tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan: “har qanday vosita bo‘lib, kommunikatsiya va publikatsiya uchun xizmat qiladi, jumladan, bosma nashr, radio va televideniye uchun ahamiyatli” [6. B. 473].

“Media” bilan bog‘liq tushunchalar fanga kiritilganiga ko‘p vaqt bo‘lgan bo‘lsa-da, yagona va yakdil tushunchalar tizimi shakllantirilmagan. Ba’zi adabiyotlarda “mediamadaniyat” “mediakompetentsiya” tushunchasi bilan sinonim sifatida qo‘llanadi. Nemis tili-

da (nem. – medienkompetenz, ingl. – media competence) mediakompetentlilikni “mediaga nisbatan malakaviy, mustaqil, ijodiy va ijtimoiy-mas’uliyatli harakatlar” qobiliyati sifatida tushuniladi [7. B. 19].

Muhandis-pedagoglar ta’lim oluvchilarda nafaqat mediamadaniyatni, balki medialarni tanqidiy, refleksiv baholash hamda mediaetika bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirishi ular kasbiy faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bundan tashqari media o‘rganish vositasi sifatida tatbiq etilishi, o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarning interfaol o‘rganishi uchun didaktik imkoniyatlardan maqsadli foydalana olishga o‘rgatish muhandis-pedagogning vazifasi hisoblanadi.

Bo‘lajak muhandis-pedagoglarning mediamadaniyati bevosita bir davlatda shakllangan umumiy mediamadaniyat bilan uzviylikda rivojlantiriladi. Bir davlatdagi umumiy mediamadaniyat davlatning siyosiy tizimi, tarixiy, milliy identiteti, mentaliteti kabi omillar bilan bevosita bog‘liq. Tarixan olib qaraganda O‘zbekistonda og‘zaki axborot almashinuvi qadimiy an’anaga ega.

Turli mamlakatlarning ko‘plab olimlari “mediamuhit”, “mediamadaniyat”, “mediata’lim”, “mediasavodxonlik” kabi asosiy tushunchalarni shakllantirishning bir necha usullarini aytib o‘tishgan.

Mediata’lim maqsadlari quyidagi ko‘rinishda ifoda etiladi:

– ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali beriladigan axborotni tushunish va qayta ishlash, keng talqin etishga o‘rgatish;

– ijodiy fikrlashni, u yoki bu xabarning yashirin mazmunini tushunishni, salbiy mazmunli axborotdagi yoshlar ongini o‘zgartirishga harakatlarga qarshilik qila bilishni rivojlantirish;

– talab etiladigan axborotni topish, tayyorlash, yetkazish va qabul qilish malakasini shakllantirish [9].


Pedagog olim B.Hoffmann “media” tushunchasining o‘lchovlarini quyidagicha tavsiflaydi [6] (1-jadval):

1-jadval

B.Hoffmann bo‘yicha “media” tushunchasining o‘lchovlari

Media tushunchasi		
Madaniy fenomenologiya	Jurnalistika/kommunikatsiyaga doir tadqiqotlar	Pedagogik/didaktik
Media – moddiy belgi tashuvchisi	Ommaviy axborot vositalari/ texnik medialar/ telekommunikatsiya	Yordamchi vosita
Idrok ta’limi, ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash, amaliy media faoliyati	– madaniy-ma’rifiy ishlar; – media ta’lim; – jamoatchilik bilan aloqalar; – amaliy media faoliyati.	– ommaviy axborot vositalaridan maqsadli foydalanish; – amaliy media faoliyati.
Estetik tarbiya va muloqot	Mediapedagogika	Mediadidaktika
Ijtimoiy pedagogikada media tushunchasi Maqsad: medialar vositasida hamda medialarga nisbatan kommunikativ kompetensiyalar va kreativlikni qo‘llab-quvvatlash		

Talabalarda mediamadaniyatni rivojlantirishga oid tadqiqotlarda turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Quyida bu borada tadqiqot ishi olib borgan J.W.Potter [10] va S.Aufenangerlarning [11] “mediamadaniyat” tushunchasi mazmuni, mohiyati va tarkibiga oid qarashlari keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. J.W.Potter va S.Aufenanger tomonidan "mediamadaniyat" tushunchasiga berilgan ta'riflar.

Keyingi vaqtlarda pedagogik amaliyot va ilmiy-tadqiqot ishlarida "mediapedagogika" tushunchasi qamrov doirasi jihatidan keng qo'llanilib kelinmoqda.

Pedagogik amaliyotda talabalarda mediamadaniyatni rivojlantirish o'quv jarayoniga keng tatbiq etilganligini kuzatish mumkin. Misol tariqasida wiki-saytlarni keltirish mumkin.

Mediamadaniyat ayrim davlatlarda alohida ta'lim yo'nalishi sifatida tasniflanadi. Buni esa rivojlanayotgan jamiyatning talabi sifatida baholash mumkin. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonida mediamadaniyat har qanday mutaxassis kasbiy faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi, egallashi lozim bo'lgan tayanch kompetensiya sifatida qaraladi hamda quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishni taqozo etadi:

– jamiyat media taraqqiyotiga doir ilmiy bilim, tafakkur, tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– media xizmatlar, ularning tuzilmalari va mahsulotlari (xususan, yozma va og'zaki ko'nikmalar artikulyatsiyasi va ifodalash uslubi).

Axborot texnologiyalari sohasidagi zamonaviy taraqqiyot, yangi raqamli media va o'quv vositalarining keng tarqalishi mediamadaniyatning ahamiyati tobora ortib borishiga olib keldi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash mazmuniga mediamadaniyat mazmunini singdirishni taqozo etadi.

Innovatsion jamiyatda axborotni tanlash, saralash, baholash, qayta ishlash va uzatish borasidagi ko'nikma va malakalarni oshirish zarurati tug'ilib, buning uchun media madaniyat, axborot savodxonligi, axborotga egalik, uni baholash va axloq qoidalariga rioya qilish eng ustuvor hayotiy-amaliy, kasbiy faoliyatning zaruriy sharti bo'lib bormoqda. Hozirgi "Sanoat 4.0." konsepsiyasini amalga oshirish sharoitida zamonaviy innovatsiyalar va texnik taraqqiyot namunalari jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib borishi, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim jihatiga aylanishi bilan bir qatorda, talaba-yoshlarning resotsializatsiya omili ham hisoblanadi.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida "Kasb ta'limi" yo'nalishi talabalarida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish jarayonida bo'lajak muhandis-pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirish mexanizmi mazmunini singdirish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida darsdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati mazmuniga singdirishga katta ehtiyoj bor.

Mediata'lim tushunchasi fanda ikki ma'noda, ya'ni keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Mediata'lim keng ma'noda quyidagi asosiy tushunchalarni qamrab oladi: "media agentliklari", "media kategoriyalari", "media texnologiyalari", "media tili", "media vakillik" va "media auditoriyasi" kabi tushunchalar. Mediata'lim – ta'lim sohasini axborotlashtirish, ta'limni axborotlashtirish sharoitida pedagog kadrlar tayyorlash, pedagoglarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish malakasini oshirishni maqsad qiladi [12].

Bo'lajak muhandis-pedagoglarda me-

diamadaniyatni rivojlantirishning maqsad va vazifasi quyidagilardan iborat:

– shaxsning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida media manba va vositalarning roli;

– mediamadaniyatning asosiy tushunchalari va qonunlari bilan tanishtirish;

– media vositalarini tahlil qilish, talqin qilish, baholash;

– talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

– talabalarning media-kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish.

Mediamadaniyati vaqt o‘tishi bilan rivojlangan va o‘zgargan turli komponentlarni o‘z ichiga oladi. Mediamadaniyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan ba’zilari:

– *media mahsulotlar*: filmlar, teleko‘rsatuvlar, musiqa, kitoblar, jurnallar, bloglar va ijtimoiy media kabi kontent yaratishni o‘z ichiga oladi;

– *media iste’moli*: insonlarning media kontentini qanday iste’mol qilishini, qanday ommaviy axborot vositalaridan foydalanishini va uni qanchalik tez-tez ishlatishini anglatadi;

– *medialarni nazorat qilish*: qonunlar, qoidalar va standartlarni anglatadi; masalan, kontentni tartibga solish, reklamani cheklash va shaxsiy hayotni himoya qilish kabilar;

– *medianing ta’siri*: ommaviy axborot vositalarining insonlar munosabati, fikrlari va xatti-harakatlariga qanday ta’sir qilishi mumkinligini o’rganadi;

– *mediainnovatsiya*: mediani iste’mol qilish va yaratish usulini o‘zgartiradigan yangi texnologiyalar va platformalarni anglatadi.

Taraqqiy etgan davlatlarda mediamadaniyat (infoetika, mediaetika, mediata’lim va hokazo) alohida fan, alohida muammo, alohida pedagogika, alohida siyosat darajasiga chiqqan bo‘lib, ilmiy markazlar, olim va mutaxassislar ushbu muammolar atrofida ixtisoslashgan holda, yuz berayotgan holatni o‘rganib, tahliliy asarlar yaratishmoqda.

Shunday qilib, “bo‘lajak muhandis pedagoglarning mediamadaniyati” tushuncha sifatida mutaxassisni tayyorlash jarayonida kasbiy tarbiya tizimida muhim omil hamda umumiy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanib, medialar bilan maqsadli ishlash, axborotni rasmiy olish, uni ilmiy uslublar yordamida qayta ishlash, o‘z vaqtida uzatish, zamonaviy vositalar hamda usullarni qo‘llay olish malakasi va ko‘nikmasiga ega bo‘lishdir.

Adabiyotlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi [Internet manba]. // URL: https://constitution.uz/oz/pages/humanrights (Murojaat etilgan sana: 27.03.2023).

2. *Worsnop C.M*. Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy, 2004. – 60 p.

3. Словарь терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакомпетентности. Под ред. А.В.Федорова. – Таганрог: Таганрогский гос. педагогич. институт, 2010. – 64 с.

4. *Уматалиев З.* Медиахавфсизлик ёшларимиз келажагининг пойдевори сифатида // “Илмий-педагогик ва ўқув-методик нашрлар орқали информациявий таҳдидларга қарши курашиш: профилактика, технология, механизм” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси тўплами. – Тошкент, 2017. – Б. 155-166

5. Informationen zur politischen Bildung: Massenmedien, 2010. [Online]. // URL: https://www.bpb.de/shop/zeitschriften/izpb/?field_filter_thema=all&field_date_content=all&d=1 (Murojaat etilgan sana: 09.12.2022)

6. *Hoffmann B*. Medienpädagogik. Eine Einführung in Theorie und Praxis. – Verlag Ferdinand Schöningh, Paderborn, 2003. – 473 p.

7. Metz B., Pfeiffer J., Staiger M., Wichert A. Lesen, Schreiben und Kommunizieren im Internet. Theorie und Praxis teilvirtueller Hochschullehre. – Herbolzheim: Centaurus_Verlag, 2004. – P. 19-42.

8. *Иванова Л.А.* Формирование медиакоммуникативной образованности школьников-подростков средствами видео (на материале уроков французского языка): дисс. ...канд. пед. наук. – Иркутск, 1999. – 204 с.

9. Ta'limni dasturiy vositalar yordamida rivojlantirish. [Internet manba]. // URL: http://hozir.org/pedagogik-dasturiy-vositalar-v2.html?page=19 (Murojaat etilgan sana: 18.12.2022).

10. *Potter J.W.* The state of media literacy // Journal of Broadcasting & Electronic Media, 2010. – №4(54). – P. 675–696.

11. *Aufenanger S.* Medienpädagogische Projekte – Zielstellungen und Aufgaben. In: Dieter Baacke, Susanne Kornblum, Jürgen Lauffer, u.a. (Hrsg.) 1999.

12. *Fedorov A.* Soviet film critics about Soviet cinema: from censorship to Gorbachev's perestroika // Медиаобразование. Media Education. 2017. № 1. – С. 213–277.

13. *Мясникова Т.И.* Развитие медиакомпетентности студентов университета: автореф. дисс. ...канд. педагогич. наук. – Оренбург, 2011. – 24 с.

14. Забелина, Н. А. Менталитет и ментальность [Электронный ресурс] // URL: http://tl-ic.kursksu.ru/pdf/001-04.pdf (Дата обращения: 12.01.2023)

15. *Рустамова Н.Р.* Умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчилари медиамаданиятини ривожлантириш технологияси (7–9-синфлар мисолида): Педагогика фан. б. фалс. докт. *(*PhD*)* дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 42 б.

16. *Гершунский Б.С.* Философия образования для XXI века. (В поисках проктико-ориентированных образовательных концепций). – Москва: Совершенство, 1998. – 608 с.

THEORETICAL-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF THE MEDIAMADANISM OF FUTURE ENGINEER-EDUCATORS IN THE CONTEXT OF INFORMATIZATION OF EDUCATION

A.V. Umarov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research. 2023. 2(70). 77-83.

[1]Andijan Machine-Building Institute, Andijan region, Andijan, 170119, st. Bobur shoh, 56 (Uzbekistan). E-mail: info@andmiedu.uz

Keywords: mediacompetence, cognitive, reproductive, electrical media.

The article talks about the development of mediamadanism of the future mukhandis educators in the conditions of informatization of education, the fact that modern media is a complex tool for human assimilation of the world around them. Today, it is based on the fact that the training of engineering educators within the requirements and needs of the labor market gives them a new importance and becomes a scientific problem, the need for the targeted and systematic development of mediamediate in a higher educational institution.

Article 19 of the Universal Declaration of human rights states that the freedom of information use of each isnon is protected as follows: "every person has the freedom of belief and the right to express it freely; this right embodies the freedom to adhere to his faith in an unhindered way and to seek, receive and disseminate information and ideas by any means [1. B. 8].

In the context of informatization of education, the development of the mediamadanism of students of educational higher education institutions is a complex process and depends on a number of factors: the integration of pedagogical and information and communication technologies; e-learning resources; technological approaches, etc. In these conditions, the organization of educational processes assumes the study of the electronic information educational environment of education, the creation of integrated information educational resources – as a factor enhancing the quality of Education.

Based on the purpose of the research work, a scientific and comparative analysis of the basic concepts was found. The following terms were

selected as the main concepts: “media”, “media-madaniyat”, “mediasavodkhanism”, “mediacompetence” and “mediata‘lim”. Clarification of these concepts is important in the implementation of the tasks set for the research work and the scientific clarification of the content of the research work.

References:

1. *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi* (1948) [The Universal Declaration of Human Rights (1948)]. [Online]. URL: https://constitution.uz/oz/pages/humanrights (Date of Access: 27.03.2023).

2. Worsnop, C.M. (2004) *Media Literacy Through Critical Thinking*. NW Center for Excellence in Media Literacy.

3. Fedorova, A.V. (ed.) (2010). *Slovar terminov po mediaobrazovaniyu, mediapedagogike, mediagramotnosti, mediakompetentnosti* [Glossary of terms on media education, media pedagogy, media literacy, media competence]. Taganrog: Taganrogskij gosudarstvennyj pedagogicheskij institut.

4. Umataliyev, Z. (2017). Mediaxavfsizlik yoshlarimiz kelajagining poydevori sifatida [Media security as the basis for the future of our youth]. In: “*Ilmiy-pedagogik va o‘quv-metodik nashrlar orqali informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish: profilaktika, texnologiya, mexanizm*” [‘Fight against informational threats through scientific and pedagogical and educational and methodological publications: prevention, technology, mechanism’] Collection of the republican scientific and practical conference. Tashkent, Pp. 155-166.

5. (2010) *Informationen zur politischen Bildung*: Massenmedien. [Online]. URL: https://www.bpb.de/shop/zeitschriften/izpb/?field_filter_thema=all&field_date_content=all&d=1 (Date of Access: 09.12.2022).

6. Hoffmann, B. (2003) *Medienpädagogik. Eine Einführung in Theorie und Praxis*. Verlag Ferdinand Schöningh, Paderborn.

7. Metz, B., Pfeiffer J., Staiger M., Wichert A. (2004) *Lesen, Schreiben und Kommunizieren im Internet. Theorie und Praxis teilvirtueller Hochschullehre*. Herbolzheim: Centaurus_Verlag,. Pp.19-42

8. Ivanova, L.A. (1999) *Formirovanie mediakommunikativnoj obrazovannosti shkol’nikov-podrostkov sredstvami video (na materiale urokov francuzskogo yazyka)* [Formation of media-communicative education of adolescent schoolchildren by means of video (on the material of French language lessons)]. Dissertation for the degree of candidate of Pedagogical Sciences. Irkutsk.

9. *Ta‘limni dasturiy vositalar yordamida rivojlantirish* [Development of education using software tools). [Online]. URL: http://hozir.org/pedagogik-dasturiy-vositalar-v2.html?page=19 (Date of Access: 18.12.2022).

10. Potter, J.W. (2010) The state of Media Literacy. *Journal of Broadcasting & Electronic Media*. 4(54). Pp. 675-696.

11. *Aufenanger S.* (1999) Medienpädagogische Projekte – Zielstellungen und Aufgaben. In: Dieter Baacke, Susanne Kornblum, Jürgen Lauffer, u.a. (Hrsg.).

12. Fedorov A. (2017) Soviet film critics about Soviet cinema: from censorship to Gorbachev‘s perestroika. *Media Education*. 1. Pp. 213–277.

13. Myasnikova T.I. (2011) Razvitie mediakompetentnosti studentov universiteta [Development of media competence of university students]. Abstract of the dissertation of the candidate of pedagogical sciences.

14. Zabelina, N.A. (2003) Mentalitet i mentalnost [Mentality and mentation]. [Online]. URL: http://tl-ic.kursksu.ru/pdf/001-04.pdf (Date of Access: 12.01.2023)

15. Rustamova, N.R. (2019) *Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari mediamadaniyatini rivojlantirish texnologiyasi (7-9-sinflar misolida)* [Technology for the development of media culture of secondary school pupils (on the example of grades 7-9). Abstract of Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in pedagogical Sciences. Tashkent.

16. Gershunskij, B.S. (1998) *Filosofiya obrazovaniya dlya XXI veka (v poiskah proktiko-orientirovannyh obrazovatelnyh koncepcij)* [Philosophy of Education for the 21st Century (in Search of Proctico-Oriented Educational Concepts)]. Moscow: Sovershenstvo.

Muallif haqida ma'lumot:

UMAROV Azizbek Vaxobovich – Andijon mashinasozlik instituti Axborot texnologiyalari kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: azizbek.umarov.80@list.ru